



SUD JARAYONIDA ADVOKAT NUTQINING ÒZIGA XOSLIGI

Turaeva Shaxlo Alijon qizi

Toshkent shahar olmazor tumani O. bobojon 17/21

IIV Akademiyasining ingliz tili fani òqituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6422496>

MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 15-mart 2022

Ma'qullandi: 20-mart 2022

Chop etildi: 25-mart 2022

KALIT SO'ZLAR

Jamoatchi-qoralovchi, prokuror, aybdor, dalillar, madaniyat, savodxonlik, sudlanuvchi, himoya nutqi, advokat nutqi, savodxonlik.

ANNOTATSIYA

ushbu maqolada sud jarayonida advokat nutqining qanchalik muhimligi haqida so'z yuritilgan bo'lib, turli vaziyatlarda to'g'ri fikr yurita olishligi bilan uning òziga xosligini korsatildi.

Prokuror nutqining o'ziga xos xususiyatlari tilning imkoniyatlari sudlanuvchining haqiqatdan ham aybdor ekanligini asoslashga qaratilgan bo'ladi. Ya'ni mavjud ashyoviy dalillar bilan babbaravar davlat ayblovdchisining mantiqiy dalillari ham ishtirok etadi. Mantiqiy dalillar esa, shubhasiz, til vositasida shakllanadi. Demak, qonunbuzarlikka oid mavjud faktlar yoramida mantiqiy dalillarni shakllantirish o'z navbatida prokuror uchun notiqlik san'atini egallash zaruratini keltirib chiqaradi.

Qonun va davlat himoyachisi bo'lgan prokuror nutqi o'ta rasmiy va jiddiyligi, ehtirolardan holi ekanligi, sudlanuvchini ayblayotganda faqat faktlar va amaldagi qonunlar moddalariga tayanib shakllantirilganligi bilan sud jarayonidagi boshqa nutqlardan keskin farqlanadi.

Jamoatchi-qoralovchi nutqi. Sud jarayonida jamoatchi-qoralovchi ham ishtirok etishi mumkin. Uning nutqi ayblanuvchi yoki sudlanuvchi manfaatiga zid fikrlar bayon qilinishi bilan prokuror nutqiga o'xshab ketadi. Ammo ko'p jihatlari bilan ular bir-biridan farq ham qiladi.

Birinchidan, jamoatchi-qoralovchi hamma sud majlislarida ham ishtirok etavermaydi. Biron bir tashkilot yoki muassasa manfaatini himoya qilish zarur bo'lgandagina uning ishtirok etishiga ehtiyoj bo'lishi mumkin. Ikkinchidan, bu nutqlar bayon usuliga ko'ra farqlanadi. Prokuror nutqida ayblanuvchi sodir etgan huquqbuzarlik yoki jinoyatning har bir holati va keltirilgan dalillarga qonun nuqtai nazaridan, hatto bu qonunlarning tegishli moddalari ko'rsatilib munosabat bildiriladi va baho beriladi. Prokuror ayblanuvchi yoki sudlanuvchini avvaldan bilmasligi



mumkin va bilishi ham shart emas. Mana shu jihatlar jamoatchi-qoralovchi nutqida boshqacharoq tarzda kechadi. U qonunni prokurorchalik bilmasligi mumkin va shuning uchun uning nutqida qonun moddalariga asoslanib xulosa chiqarishlar ko'zga tashlanmaydi. Buning ustiga u ayblanuvchi bilan bir jamoada ishlaydi va uning insoniy jihatlarini bilan tanish bo'ladi. Ular bundan keyin ham birga ishlashni davom ettirishlari mumkin. Jamoatchi-qoralovchi masalaning ana shu jihatlarini hisobga olishga majbur bo'ladi.

Harqalay sudning adolatni hukm chiqarishi nuqtai nazaridan bu kabi nutq ham muhim. Ammo uning ma'lum tartib-qoidalarini ishlab chiqish va tavsiyalar berish amaliyot nuqtai nazaridan maqsadga muvofiq ko'rinmaydi. Chunki bu kabi nutqlarga, yuqorida ta'kidlanganidek, faqat ayrim holatlardagina ehtiyoj sezilishi mumkin. Umumiy madaniyat, savodxonlik nuqtai nazaridan esa bu nutq ham boshqa har qanday nutq oldiga qo'yiladigan talablarga javob berishi kerak. Bu ko'pincha jamoatchi-qoralovchining tilni bilishi, unga bo'lgan munosabati va savodxonlik darajasi bilan bog'liq bo'ladi.

Himoya nutqi. Sud jarayonida shakllanadigan eng muhim nutqlardan biri advokatning himoya nutqi hisoblanadi. Chunki bu nutq sud jarayonida taqdiri sud hukmiga bog'liq bo'lib turgan, qanday jinoyatni sodir etganligi yoki qonunni buzganligidan qat'iy nazar, sudlanayotgan kishini insonparvarlik tamoyillariga ko'ra himoya qiladi. Sudlanuvchi o'z qilmishiga yarasha qanday jazo olishiga qaramasdan, himoya nutqi uning hayotida katta tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lishi mumkin. Bunday nutqning nafaqat sud jarayonida,

balki ijtimoiy hayotda ham kishilarga ta'siri bo'lganligini ta'kidlash joiz. Shuning uchun ham bu nutqning axloqiy va ruhiy jihatlariga e'tiborsizlik bilan qarab bo'lmaydi.

Himoyachi uchun vaziyatning murakkabligi va noqulayligi shundaki, u sud jarayonida biron bir jinoyatni sodir etgan yoki aybdor deb topilgan kishining manfaatini himoya qiladi. Mutlaqo gunohsiz odamni himoya qilish holatlari sud tajribasida kam-kam uchrashi mumkin bo'lgan hodisadir. Shuning uchun ham uning nutq ohangida talabdan ko'ra iltimos ohangi ustun bo'ladi. Aybdor deb topilgan kishining ayblari qanchalik kam va tergov jarayonida prosessual qonunlar qanchalik ko'p buzilgan bo'lsa, iltimos ohangi talab ohangiga qarab o'sib boraveradi. Binobarin, bu holat advokat nutqining shakllanishiga, ayni paytda masalaning sudlanuvchi va advokat foydasiga hal bo'lishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Sud jarayonidagi ayblanuvchining tomonida turib ijro etiladigan nutq *himoya nutqi*, *advokat nutqi*, hatto so'zlashuv uslubida *himoyachi nutqi*, *oqlovchi nutqi* deb yuritiladi. Qanday nomlanishidan qat'iy nazar, ular bir xil mazmunga ega va ular ayblanuvchining manfaatini aks ettiradi va advokat – himoyachining sud jarayonidagi o'rnini belgilaydi.

Bir narsani ta'kidlash adolatdan bo'lar ediki, shu paytga qadar sud jarayonida advokatlarning mavqeyi sezilarli darajada bo'lganligi kam kuzatilgan. Shundan kelib chiqib, ularning nutqiga ham e'tibor kam bo'lgan. Ammo mustaqillikdan keyingi davlatchiligimizda qonun ustuvorligi ta'minlangandan so'ng sud sohasida islohotlar boshlab yuborildi.



O'zbekiston Respublikasining «Advokatura va advokatlik faoliyati to'g'risida»gi Qonunning qabul qilinishi, 1999 yildan «Advokat» jurnalining nashr etila boshlaganligining o'ziyoq huquqiy faoliyatning bu sohasiga e'tiborning jiddiy bo'lganligidan dalolatdir. Qonunga binoan davlat himoyasida bo'lgan advokatning burchi va mas'uliyati shu qadar yuksakki, uni faqat huquqshunoslik iqtidoriga va keng qamrovli bilimga ega bo'lgan kishigina uddalashi mumkin. Binobarin, til bilimi va madaniyati ham ana shu burch va mas'uliyat doirasida qaraladi.

Qonunning 6-moddasiga muvofiq advokat «fuqarolik ishlari hamda ma'muriy-huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlar bo'yicha sudda, boshqa davlat organlarida, jismoniy va yuridik shaxslar oldida vakillikni amalga oshiradi; jinoiy ishlar bo'yicha dastlabki tergovda va sudda himoyachi, jabrlanuvchining vakili, fuqaroviy da'vogarning hamda fuqaroviy javobgarining vakili sifatida ishtirok etadi». Advokat fuqarolarning huquqiy madaniyatini yuksaltirish va aholi orasida yuridik bilimlarni targ'ibot qilish ishida qatnashishi lozimligi ham Qonunda ko'zda tutilgan.

«Advokat» jurnali tahririyatiga Qashqadaryo viloyati Muborak tumani huquqiy maslahatxonasi mudirasi N.Ro'ziyeva quyidagi mazmunda xat yo'llagan: «Advokatning himoya nutqlari sudda asosiy o'rin tutadi. Lekin advokatlarning notiqlik san'ati to'g'risida biron jurnal yoki gazetada maqola uchratmaganman. Yoki advokatlar qanday himoya nutqi so'zlashi kerak, nimalarga e'tibor berishi kerakligi to'g'risida biron adabiyotga ko'zim tushmagan. Faqatgina

rus advokatlarining bir-ikkita himoya nutqlari to'plamini o'qiganman. «Advokat» jurnali respublika advokatlari yordam sifatida mamlakatimizdagi taniqli advokatlarning himoya nutqlarini e'lon qilib borsa, chunki ko'pchilikdan ko'p narsani o'rganish mumkin»².

Ana shu taklifga hamohang tarzda jurnal tahririyati tomonidan *eng yaxshi himoya nutqi* tanlovini e'lon qilib, ularning namunalari berib borilmoqda. Jumladan, 2002 yilning 2, 3, 4-sonlarida advokatlar B.Salomovning 2001 yilning 29 yanvarida Qashqadaryo viloyat sudida, Sh.Egamning fuqaro I.Inomova, A.J.Polvonovning A.K.Sapayev ishlari yuzasidan so'zlagan himoya nutqlari keltirilgan. Jurnal tahririyati-ning bu harakatini sud sohasidagi islohotlarning amaldagi ko'rinishi sifatida baholanishi lozim va bu materiallardan huquqshunos-talabalar uchun dars jarayonida foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Yuqorida tilga olingan himoya nutqlari matni birmuncha keng bo'lganligi tufayli ularni bu o'rinda to'lig'icha keltirishning imkoni yo'q. Ammo himoya nutqiga til va uslub nuqtai nazardan qo'yiladigan talablarni sharhlashda ulardan bimalol foydalanish mumkin.

Himoya nutqi ham boshqa omma oldida amalga oshiriladigan oshkora nutqlar qatori o'z qurilishiga ega. Jumladan, nutq sud hay'atiga rasman murojaat qilish bilan boshlanadi. Nutqning maqsadi e'lon qilinadi. Aybning mazmuni, garchi sud jarayonida avval aytilgan bo'lsa ham, barcha tafsilotlari bayon qilinadi. O'zi himoya qilayotgan fuqaro sodir etgan huquqbuzarlik yoki jinoyat qonunning



qaysi moddasiga nisbatan tasnif qilinayotganligi yana bir bor ta'kidlanadi.

Shundan so'ng qo'yilayotgan ayb o'z tasdig'ini topgan-topmaganligi haqida o'z nuqtai nazarini ma'lum qiladi va ularni amaldagi qonunlarning tegishli moddalari bilan asoslashga harakat qiladi. Sudlanuvchining qonuniy huquqlari tergov va sudda buzilgan-buzilmaganligiga munosabat bildiriladi. Xulosada O'zbekiston Respublikasi JPKning 53-moddasiga asosan sud oldiga o'z talablarini qo'yadi. Jumladan, yuqorida tilga olingan A.J.Polvonovning 3 yashar J.Shukrullayevni traktorning orqa g'ildiragi bilan urib yuborib, yo'l-transport hodisasi sodir qilgan A.Sapayevni himoya qilish jarayonida so'zlagan nutqi oxirida sud hay'atidan quyidagilarni so'ragan:

1. A.Sapayevga nisbatan jazo tayinlashda O'zR JKning 55-moddasida nazarda tutilgan jazoni yengillashtiruvchi holatlarni, aybini bo'yniga olib chin ko'ngildan pushaymonligini, jabrlanuvchi vakildan kechirim so'raganini, ijtimoiy foydali mehnat bilan shug'ullanib kelib, ish va yashash joylaridan ijobiy tavsiflanganini, qaramog'ida voyaga yetmagan 3 nafar farzandlari bo'lib, oilada yolg'iz boquvchi ekanligini, sudlanuvchining asosiy kasbi haydovchilik bo'lib, boshqa mutaxassislikka ega emasligini e'tiborga olib, O'zR JKning 57-moddasini tatbiq qilib, transport vositalarini boshqarish huquqidan mahrum qilmaslikni, yo'l-transport hodisasining kelib chiqish sabablari va oqibatlari o'rtasidagi sababiy bog'lanish, ya'ni yosh bolaning ko'chada yolg'iz, qarovsiz qoldirilganligini, sudlanuvchining shaxsini, sodir etilgan jinoyatning xususiyati va

ijtimoiy xavflilik darajasini e'tiborga olib, unga nisbatan O'zR JKning 266-moddasi 2-qismi bilan yengil jazo tayinlab, tayinlangan jazoni o'tamasdan turib ham uning xulqini nazorat qilish orqali tuzatish mumkin degan xulosaga kelib, JKning 72-moddasini qo'llab shartli hukm qilishni, qamoqda saqlash ehtiyot chorasini bekor qilib, sud zalidan qamoqdan ozod qilishni.

2. Dastlabki tergov davrida O'zR JPK normalari qo'pol ravishda buzilganligi, qonun normalari to'g'ri talqin qilinmaganligi, prosessual harakatlar qalbakilashtirilganligi uchun tergovchi Z.Nuriyevning dastlabki tergovda yo'l qo'ygan kamchiliklari ustidan JPKning 423, 476-moddalari tartibida xususiy ajrim chiqarishni.

3. Dastlabki tergovda O'zR JPK normalari qo'pol ravishda buzilib, sudlanuvchi A.Sapayev 2002 yilning 16 avgustidan 21 avgustiga qadar qonunga xilof ravishda ushlab turilganlik holati bo'yicha hozirda mening qo'limda tergovchilarning harakatlari ustidan keltirilgan shikoyat bo'yicha biron bir ma'lumot bo'lmasa-da, maslahat uyiga kirgan vaqtda ushbu holatni ham o'rganib chiqib tergovchi Z.Nuriyev mansab vakolati doirasidan chetga chiqqanligi, tergov bo'limi boshlig'i R.Jumaniyazov esa qonun buzilishini bila turib harakatsizlik qilganligi uchun ulargi nisbatan jinoyat ishi qo'zg'atish haqida ajrim chiqarishni. (Jurnal tahririyatining ma'lumot berishicha, masala xuddi advokat qo'yilgan talablar asosida hal etilgan. Xorazm viloyat sudi ishni appelyasion tartibda ko'rib chiqib, A.Sapayevga nisbatan O'zR JKning 72-moddasini qo'llab hukm chiqargan va



ehtiyot chorasi bekor qilinib, u qamoqdan ozod qilingan).

Sudlanuvchini himoya qilish jarayonida mana shu tarzda nutqning mazmunini bayon etiladi. Huquqbuzarlik yoki jinoyatni yuzaga keltirgan holatlarning mohiyatini ochib berishga harakat qilinadi, sudda keltirilayotgan har bir ayblovlar va dalilga munosabat bildiriladi.

A.F.Plevako himoya nutqining mohir ustasi bo'lgan. S.Inom-xo'jayev: «A.F.Konining gapiga ko'ra, Plevakoning notiqligi ilhom darajasidagi yuksaklikda bo'lgan. U o'zi himoya qilgan kishilarning butun ichki olamini o'zlashtirib olgan. Plevako o'z nutqlarida obrazli iboralardan keng foydalanadi. Jumladan, u dehqonlar isyonini ko'rilgan ishda himoyachi sifatida chiqadi. Prokuror bu isyonni kim birinchi bo'lib boshladi, deb so'raganida u: Siz buni bila olmaysiz, chunki bug'doyzor ustida shamol tursa hamma boshqoq bir xil baravariga silkinadi, qay biri birinchi bo'lib silkinganini qayerdan bila olasiz?- deydi»⁴.

Sergeich taxallusi bilan mashhur bo'lgan P.S.Proxovshikov ham notiqlik san'atining nazariyotchilaridan sanaladi. Uning «Sud himoyachisi», «Sud jarayonida nutq san'ati» asarlarida bu sohaga oid g'oyat qimmatli fikrlar bayon etilgan. Sergeich nutq namunasini mukammal badiiy asar darajasida qaraydi va uning shu darajaga yetishi uchun quyidagilarga e'tibor berilishi lozimligini uqtiradi: tinglovchilar bilan to'g'ridan-to'g'ri aloqa o'rnatish, samimiy munosabatda bo'lish; nutq jarayonida vaqti-vaqti bilan ohangni o'zgartirib turish; nutq orasida hazil-mutoibaga o'rin berish; kutilmaganda tinglovchilarga murojaat qilish, savollar berish; asosiy narsani yashirib,

tinglovchilarni qiziqtirish; fikrni birdan uzib qo'yib boshqa mavzuga o'tish va yana avvalgi holatga ustalik bilan qaytish; keyin aytiladigan fikrlarga oldindan shama qilib qo'yish va hokazo⁵.

Yuqorida sud jarayonida amalga oshiriladigan nutqlar, ularning o'zaro farqli va umumiy jihatlari xususida qisqacha ma'lumotlar berildi. Shu bilan birga, notiqlik san'ati oldiga qo'yiladigan umumiy talablar ham mavjud bo'lib, talabalar ulardan ham xabardor bo'lishlari kerak. Bu borada turli tillarda, jumladan o'zbek tilida ham, adabiyotlar mavjud bo'lsa-da, asosan A.Saidov va G.Sarkisyanlarning «Yuridik til va huquqshunos nutqi» (Toshkent: Adolat, 1994, 32-b.) risolasidan foydalanishni tavsiya etamiz. Chunki bu kitobchada mualliflar huquqshunosning ma'ruzasi, ya'ni shakllantiradigan nutqi qanday bo'lishi lozim va bu ma'ruzalarning boshqa ma'ruzalardan farq qiladigan hamda o'ziga xos jihatlari nimalardan iborat, degan savollarga ham, qisman bo'lsa-da javob berishgan.

Xo'sh, bu talablar nimalardan iborat? Ta'kidlaganimizdek, yurist nutqni ham notiqlik san'atining umumiy talablariga bo'ysunadi. Ya'ni, yurist-notiq, eng avvalo, ma'ruzaning maqsad va vazifasini aniq tasavvur qila olishi, mavzu atrofida ma'lumotlar to'plashi, tegishli adabiyotlar ustida ishlashi, keltirmoqchi bo'lgan faktlar oldindan tekshirilib ko'rilishi, boshqacha aytganda, u haqda yetarli bilimga ega bo'lishlari lozim. Shundan so'ng ma'ruza rejasi tuziladi va bunda albatta tinglovchilarning – auditoriyaning salohiyati inobatga olinadi.

Nutqning tozaligiga e'tibor berish, unda chet so'zlarni o'rinsiz ishlatishga yo'l



qo'ymaslik, ortiqcha – parazit so'zlarni, shtamlarni ishlatmaslik hamda nutqni shirinso'zlik bilan, yoqimli ohangda, ravon talaffuz etishga harakat qilish, mujmallikdan qochish ham fazilat sanaladi. «Asosiy fikrni ovozni past-baland qilish, ohangni o'zgar-tirish, imo-ishora, qaytarish bilan mohirona uqdirish zarur. – deb ta'kidlashadi risola mualliflari. - Notiqning fikri ham, imo-ishorasi ham, nutqi ham bir qolipda bo'lmasligi lozim. Ma'ruzaning jonlanishiga, tinglovchilarning diqqatini tortishga ko'maklashadigan ta'riflar, taqqoslashlar, maqol va matallar, qochiriq so'zlar, ba'zi hollarda hazil-mutoiba gaplarni qo'shishdan qo'rqmaslik kerak. Lekin ularni suiiste'mol qilish bilan ma'ruza materialiga putur yetkazish yaramaydi»⁶.

Nutq so'zlanayotgan paytda notiqning o'zini to'g'ri tuta bilishi, oddiylilik va tabiiylikka harakat qilishi, doimo o'zini kuzatib borishi, ortiqcha harakatlarga yo'l qo'ymasligi, hatto kiyinishda ham kamtarlik ustuvor bo'lishi kabi jihatlar ham muhimdir. Tinglovchilardan tushgan savollarga ham mumkin qadar qisqa va aniq javob berishga harakat qilish lozim.

Yana shu narsani ham ta'kidlash joizki, har bir nutq alohida shaxs bilimi va dunyoqarashining, tildan xabardorligi va

mahoratining mahsuli sanaladi. Shuning uchun ham notqlik – individuallik, o'ziga xoslik sifatida baholanib, hamma uchun yagona andozalarni belgilab qo'yish mumkin emas. Ammo yuqoridagi kabi, umumiy ma'nodagi, yo'nalish xarakteridagi tavsiyalar ham zarar qilmaydi.

G.Sarkisyans notqlikning boshqa kasbdagi kishilar uchun zarurligini inkor etmagan holda yurist uchun nihoyatda zarur ekanligini ta'kidlaydi. «Hozir mustaqil O'zbekistonda huquqiy davlat qurishga qat'iy yo'l tutilgan, jamiyatimiz hayotning barcha sohalarida, shu jumladan adliya va odil sudlov sohasida ham, umumjahon demokratiyasi tiklanayotgan sharoitda respublikamiz huquqshunoslari bo'lmish olimlar oldida ham, amaliyotchilar oldida ham o'ta mas'uliyatli va murakkab vazifalar turibdi»⁷.

Yuqoridagilardan **xulosa** qilib aytganda, til har qanday jamiyatning aloqa vositasi sanalar ekan, u yurist faoliyatida ham nihoyatda kuchli quroldir. Ammo muhim noyob boylikning ahamiyatini hech kimga chaqiriqlar, shiorlar, da'vatlar bilan uqtirib bo'lmaydi. Faqatgina o'z Vatanini, millatini, ona tilisini, shu bilan birga, o'z kasbini sevgan kishigina buni boshqalardan ko'ra avvalroq anglay olishi va undan unumli foydalana olishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. «Advokat», 2002, 2,3,4-sonlar.
2. *Alimuhamedov A.* Antik adabiyot tarixi. – Toshkent, 1969.
3. *A p r y e s y a n G.Z.* Oratorskoye iskusstvo. – M., 1978. – 280 s.
4. *Inomxo'jayev S.* Notqlik san'ati asoslari. – Toshkent: O'qituvchi, 1982.
5. Oratorskoye iskusstvo. Sostavitel S.I.Berezin. – L.,1970.
6. *Saidov A. Sarkisyans G.* Yuridik til va huquqshunos nutqi.- Toshkent: Adolat, 1994.
7. O'SE, 3-tom. – Toshkent, 1972.
8. O'zbek Milliy ensiklopediyasi, II tom. – Toshkent: Davlat ilmiy nashriyoti,2001.